

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZIYADULLAYEV ABUBAKIR IBODULLA O‘G‘LI

ALFRED DE MYUSSE ASARLARINING BADIY ZAMONI VA MAKONI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li

Alfred de Myusse asarlarining badiiy zamoni va makoni. 3

Зиядуллаев Абубакир Ибодулла угли

Художественное время и пространство произведений Альфреда де Мюссе . 27

Ziyadullaev Abubakir Ibodulla ugli

The artistic time and space of the works of Alfred de Musset..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57



**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZIYADULLAYEV ABUBAKIR IBODULLA O‘G‘LI

ALFRED DE MYUSSE ASARLARINING BADIY ZAMONI VA MAKONI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**



Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2210 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Umurova Go'zal Xatamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Asadov Maxmadiyor To'rayevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" may soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№61857 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" aprel daqi № 12 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida zamon va makon tushunchasi adabiy-estetik qatlam sifatida, badiiy tasvirning poetik vositalaridan biri hamda ijodkorning g'oyasi va asarning ijodiy konsepsiyasidan kelib chiqib, ko'zlangan motivni ifodalashda, real borliq manzarasini yaratish uchun muhim tarkibiy qism bo'lib xizmat qilmoqda. Olam tasvirini qayta yaratish, ruhiy xarakter xususiyatlari, jamiyatning mavjud ijtimoiy holati, qadriyatlar, urf-odatlar, diniy qarashlar, tabiat haqidagi tasavvurlarni aks ettirish va badiiy asarning semantik xususiyatlarini ochib berishda xronotopik yondashuvni muhim kompozitsion hodisa ekanligini ochib berish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy zamon va badiiy makon xususiyatlarini ijodiy tomonini anglash asar syujeti, uning janri, kompozitsiyasi, mazmuni hamda g'oyasini idrok etish, yozuvchi, kitobxon o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda muhim vosita ekanligini aniqlash yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Syujet kompozitsiyasi, asar strukturasi uyg'unlashtiruvchi, epik matn maydonini shakllantiruvchi, badiiy voqelikning real yaxlitlikda qabul qilinishini ta'minlovchi badiiy zamon va makonning badiiy asar estetik tabiatini anglashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, asar qahramonlari xarakteri va psixologik holatini yoritishda, badiiy asar kompozitsiyasini tashkil qilishda, peyzaj va portretning shakllanishida zamon va makonning ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish zarurati adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda mavjud an'anaviy, ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda, jahon adabiyoti durdonalarining adabiy-estetik ko'rinishlarini, tub milliy qadriyatlarini, jamiyat qurilishiga adabiyotning ta'sirini, fransuz adabiyotining adabiy-badiiy xususiyatlarini ilmiy-tahliliy munozaralardan o'tkazishni, o'ziga xos shaklda ulardan adabiyotshunosligimiz ravnaqida foydalanishni bugungi kunning zamonaviy ilmiy-tadqiqot tendensiyalari taqozo etmoqda. "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratish"¹ kabi muhim qadamlar tashlayotgan bugungi davr izlanuvchilardan adabiyotshunoslikka o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan romantizm oqimining ijtimoiy-ma'naviy o'rnini, xronotop xususiyatlarining adabiy-badiiy ko'rinishlarini, inson va jamiyat o'rtasidagi muammolarining badiiy talqinini zamon va makon komponentlariga tayangan holda tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi,

¹ Mirziyoyev Sh. "Adiblar xiyoboni"ning ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3578/2020,20-may>. – Murojaat vaqti: 27.03.2025

2020-yil 6-noyabrda PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy makon va zamon xususida Yevropa olimlari A.Rodriguez, W.Heffernan, A.James, H.Meyerhof, J.Culler, G.Fischer, G.Bachelard, M.Blanchot, N.Bemong², rus olimlari M.Baxtin, Y.M.Lotman, N.Gey, A.Nikolayev, D.Lixachev, N.Shutaya, V.Xalizev, B.Meylax³ hamda o‘zbek adabiyotshunoslari E.Abutaliyeva, Z.To‘rayeva, H.Boltaboyev, U.Jo‘raqulov, A.To‘ychiyev, Q.Qodirov, N.Shodiyev, G‘.Murodov, B.Karimov, A.Nosirov, U.Qarshibayeva, O‘.Nazarov⁴ tomonidan ilmiy-nazariy izlanishlar olib borilgan.

² Rodrigues A. and etc. *Studies on time: Time in Literature*. – Los-Angeles: University of California Press, 1991. – 14 p.; James A.W. Heffernan *Space and time in Literature and the visual art. Soundings: An Interdisciplinary journal*. – Hanover, Vol. 70. №1/2, 1978. – P. 95-119; Meyerhof H. *Time and Literature*. – Los Angeles: University of California Press, 1960. – 178 p.; Culler J. *Literary theory*. – New York: Oxford University Press Inc, 2011. – 192 p.; Fischer Gustave-Nicolas. *La Psychologie de l'espace*. – Paris: PUF, 1981. – 128 p.; Bachelard G. *La Poétique de l'espace*. – Paris: Presses universitaires de France, 1961. – 215 p.; Blanchot M. *L'Espace littéraire*. – Paris: Gallimadr, 1988. – 384 p.; Bemong N., Borghart P. and etc. *Bakhtins's theory of literary chronotope: reflexions, applications, perspectives*. – Gent: Academia Press, 2010. – 213 p.

³ Бахтин М.М. *Вопросы литературы и эстетики* – Москва: Художественная литература, 1975. – 504 с.; *Промлемы поэтики Достоевского*. – Москва: Эксмо, 2017. – 640 с.; *Эстетика словесного творчества*. – Москва: Искусство, 1986. – 445 с.; *Эпос и роман*. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000. – 301 с.; Лотман Ю.М. *Художественное пространство в прозе Гоголя // Лотман Ю.М. В школе поэтического слова: Пушкин, Лермонтов, Гоголь*. – Москва, 1988. – С. 251-293; Гей Н.К. *Искусство слово*. – Москва: Наука, 1967. – 314 с.; Лихачев Д.С. *Поэтика древнерусской литературы*. – Москва: Наука, 1979. – 360 с.; *История поэтики русской литературы. Смех как мировоззрение и другие работы*. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. – 566 с.

⁴ Тураева З.Я. *Категория времени. Время художественное и время грамматическое (на материале английского языка)*. – Москва: Высшая школа, 1979. – 219 с.; Абуталиева Э.И. *Пространство и время в русскоязычной прозе Средней Азии (на материале творчества Тимура Пулатова и Тимура Зульфукарова)*: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 158 с.; Жўрақулов У. *Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп*. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.; Тўйчиев А. *Ўзбек романларида макон ва замон*. Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 152 б.; Қодиров К. *Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини*. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент,

Xususan, E.Abotaliyeva o‘zbek va tojik yozuvchilarining asarlarini xronotopik tahlil qilish, I.G‘aniyev dramatik asarlarda xronotopning ilmiy-nazariy bayonini ochib berish, U.Jo‘raqulov Alisher Navoiy “Xamsa”sinining xronotopik tadqiqini o‘rganish, B.Karimov “O‘tkan kunlar” asarida qo‘llanilgan badiiy zamonni ilmiy-nazariy sharhlash orqali milliy adabiyotshunosligimizda yaratilayotgan asarlarning badiiy zamon va makonini tadqiq qilishga o‘z hissasini qo‘shishgan. A.Nosirov Odil Yoqubov romanlarida badiiy xronotopning asar syujetiga va kompozitsiyaning yaxlitligiga ta’sirini, U.Qarshibayeva XIX asr Yevropa adabiyotining poetik hamda xronotopik ko‘rinishini⁵ o‘z izlanishlarida ifodalab o‘tgan. Bundan tashqari, B.To‘rayeva, N.Qurbonova, K.Qodirov, O‘.Nazarov, M.Ishanjanova, S.Ikramova, A.Ekabsons⁶ kabi olimlar ham badiiy zamon va badiiy makonning turli xususiyatlarini tahlil qilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi XIX asr fransuz adabiyotida badiiy zamon va makon xususiyatlarini Alfred de Myusse asarlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Alfred de Myusse asarlarida zamon va makon tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Alfred de Myusse hikoyalarida tanlangan badiiy makonning obyektiv xususiyatlarini poetik tahlil qilish orqali asoslash;

2004. – 22 б.; Murodov G. Tarixiy roman: genezisi, keyingi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2005. – 170 b.; Karimov B. Qodiriy nasri – naфosat qасри. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 232 б.; Носиров А. Одил Ёқубор романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс... автореферати. – Самарқанд, 2018. – 70 б.; Қаршибаева У. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. дисс... автореферати. – Тошкент, 2016. – 82 б.; Назаров Ў. Романда бадий хронотопнинг ўзига хослиги: Монография. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 140 б.

⁵ Абуталиева Э.И. Пространство и время в рускоязычной прозе Средний Азии (на материале творчества Тимура Пулатова и Тимура Зульфугарова): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 158 с.; Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси: Монография. – Тошкент: Фан, 2005. – 282 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Гафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.; Аlisher Navoiy “Xamsa”сида хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент: Турон-икбол нашриёти, 2017. – 289 б.; Karimov B. Qodiriy nasri – naфosat qасри. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 232 б.; Носиров А. Одил Ёқубор романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс... автореферати. – Самарқанд, 2018. – 70 б.; Қаршибаева У. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. дисс... автореферати. – Тошкент, 2016. – 82 б.

⁶ Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг киёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. д-ри. дисс... автореферати. – Бухоро, 2022. – 71 б.; Курбонова Н. Нореал ҳаёт тасвирида образ ва хронотоп (Данте Алигьери ва Абдулла Орипов ижоди мисолида). Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Бухоро, 2020. – 47 б.; Қодиров К. Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2004. – 22 б.; Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Қарши, 2018. – 48 б.; Екабсонс А. XX-XXI асрлар замонавий рус драматургиясида замон ва макон. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2020. – 74 б.; Икратова С. Оламнинг лисоний манзарасида макон категорияси ва миллий ўзига хослик. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Фарғона, 2018. – 52 б.; Ишанжанова М. “Макон”ни ифодаловчи дейктик бирликларнинг чоғиштирма тадқиқи. Филол. фан. фалсафа. д-ри. (PhD) дисс... автореферати. – Андижон, 2021. – 49 б.

Alfred de Myusse asarlari qahramonlari taqdirida individualizmga xos jihatlarni yoritish;

“Asr farzandining dil izhori” asari qahramonlari xarakterlarini lingvopoetik tahlil asosida ochib berish;

Tadqiqotning obyektini sifatida Alfred de Myussening “Asr farzandining dil izhori” va “Gamiani” romanlari, “Emmelin” hikoyasi, “Venetsiyadagi kecha” va “Muhabbat bilan o‘ynashmang” dramalari hamda “Tunlar” she’riy to‘plami tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Alfred de Myussening tanlab olingan asarlarida qo‘llanilgan badiiy zamon va badiiy makonning o‘ziga xos poetik xususiyatlarini tizimlashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada struktur-semantik, kognitiv, germeneytik, qiyosiy-tipologik, analitik hamda stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alfred de Myusse asarlari poetikasi ijtimoiy-siyosiy davr bilan xarakterlanib, badiiy zamon aniq vaqt belgilarisiz qo‘llanilganligi, tun obrazi asosiy badiiy zamoni ifodalaganligi, badiiy makon sifatida urush inqirozi va ruhiy iztirob manzaralari, ko‘rimsiz manzillar va mavhum makon tanlanganligi aniqlangan;

Alfred de Myussening “Emmelin” va “Gamiani” asarlarida syujet yopiq makonda yaratilganligi, tungi makon tasviri ustunligi, inson qalbi badiiy makon sifatida tanlanganligi, makon tasvirida asosiy urg‘u ijtimoiy hayotning ma’naviy tasviriga qaratilganligi isbotlangan;

Alfred de Myussening “Venetsiyadagi kecha” va “Muhabbat bilan o‘ynashmang” dramalari qahramonlari taqdirida individualizmga xos romantik va kinoyali holatlar, xronotop tasvirida satira, yumor va tagma’no komponentlar orqali ifodalanganligi dalillangan;

“Asr farzandining dil izhori” asari qahramonlari taqdiriga, xarakteriga ijtimoiy muhit “asr kasalligi” (mal du siecle)ning xiyonat, yolg‘onchilik kabi noinsoniy, shahvoniy, nafsiy, egoistik holatlari ta’siri mavjudligi ochib berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy zamon va badiiy makon xususida ilmiy tadqiqotlar tahlildan o‘tkazilib, real vaqt doimiy oldinga harakatdaligi, badiiy vaqt to‘xtashi, ortga qaytishi, kengayishi, siqilishi hamda real makon mavjud tabiat qonunlariga bo‘ysunganligi, badiiy makon esa yozuvchining badiiy tasviriga tayanishi yoritib berilgan;

Alfred de Myusse asarlaridagi badiiy zamon aniq vaqt belgilarisiz qo‘llanilishi, asosan tungi vaqt tanlanganligi, ichki xronotop xususiyatlariga tayaniganligi, xilvat maskanlar, manzarasiz tabiat, buzuqlik hududlari badiiy makon sifatida qo‘llanilgan;

yozuvchi yaratgan asarlar motivi “asr kasalligi” (mal du siecle) atrofida shakllanganligi, asarlardagi badiiy zamon va makon yozuvchi yashagan davr bilan xarakterlilik, ijtimoiy muhitning yoshlarni ma’naviy buzuq holga keltirganligi, milliy qadryatlarning yo‘qolishiga olib kelganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda foydalanilgan tahlil usullari va yondashuvlari zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi va metodologik

jihatdan asoslanganligi, tadqiqot materiali ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning mantiqiy bayon etilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalar adabiyotshunoslik yo‘nalishida tadqiqot ishlarini olib borishda, XIX asr fransuz adabiyotida badiiy zamon va badiiy makon komponentlari, Alfred de Myusse asarlarining badiiy xronotopi va poetikasi hamda dekadentlik holatining badiiy tahlillaridan jahon adabiyotshunosligini, poetik tahlil qonuniyatlarini o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy xulosa va tahlillardan bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun “Adabiyotshunoslik”, “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Jahon adabiyoti” kabi o‘quv kurslari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, fransuz adabiyoti tarixidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alfred de Myusse asarlarining badiiy zamon va makoni hamda ularning lingvopoetik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Alfred de Myusse asarlari poetikasi ijtimoiy-siyosiy davr bilan xarakterlanib, badiiy zamon aniq vaqt belgilarisiz qo‘llanilganligi, tun obrazi asosiy badiiy zamoni ifodalaganligi, badiiy makon sifatida urush inqirozi va ruhiy iztirob manzaralari, ko‘rimsiz manzillar va mavhum makon tanlanganligi tahlili yuzasidan olingan nazariy xulosalardan Yevropa Ittifoqining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 24-yanvardagi 170/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, XIX asr fransuz badiiy asarlarida zamon va makon tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlari va Alfred de Myusse asarlari poetikasi haqidagi ma’lumotlar tadqiqot loyihasining xalqarolashtirish tendensiyasini boyitishga xizmat qilgan;

Alfred de Myussening “Emmelin” va “Gamiani” asarlarida syujet yopiq makonda yaratilganligi, tungi makon tasviri ustunligi, inson qalbi badiiy makon sifatida tanlanganligi, makon tasvirida asosiy urg‘u ijtimoiy hayotning ma’naviy tasviriga qaratilganligi xususida olib borilgan tahlillarga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining “TEMPUS” dasturi Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UKTEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-yanvardagi 171/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, XIX asr fransuz adabiyotida mavjud badiiy holatning ko‘rinishi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati, adabiy-badiiy turlarning individual ijod namunalariga bo‘lgan ta’siri hamda

kishilik jamiyatida insonlarning o‘zaro bir-biriga munosabatlarini asoslash loyihaning til o‘qitishdagi lingvomadaniy omillarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan;

Alfred de Myussening “Venetsiyadagi kecha” va “Muhabbat bilan o‘ynashmang” dramalari qahramonlari taqdirida individualizmga xos romantik va kinoyali holatlar, xronotop tasvirida satira, yumor va tagma’no komponentlarga oid xulosa va natijalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-yil davomida e’fira uzatilgan “Assalom Samarqand” va “Uchqun” teleko‘rsatuv ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 21-dekabrda № 01-07/410-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, Alfred de Myussening “Venetsiyadagi kecha” va “Muhabbat bilan o‘ynashmang” dramalari qahramonlari individualizmga xos jihatlar mavjud zamon va makonning faol komponentlariga bog‘liq qiziqarli tahlillar tayyorlangan materialning mazmunini mukammallashtirib, ko‘rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyatini oshirishga xizmat qilgan;

“Asr farzandining dil izhori” asari qahramonlari taqdiriga, xarakteriga ijtimoiy muhit “asr kasalligi” (mal du siecle)ning xiyonat, yolg‘onchilik kabi noinsoniy, shahvoniy, nafsiy, egoistik holatlari ta’sirini tadqiq qilishda erishilgan xulosalardan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 20-iyun 1261/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Asr farzandining dil izhori” asari qahramoni Oktav taqdiriga, xarakteriga ijtimoiy muhit “mal du siècle”ning ta’siri o‘z o‘rniga ega ekanligini asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 7 ta ilmiy-amaliy konferensiya, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 7 ta ilmiy tezis va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta va impakt faktori yuqori bo‘lgan jurnallarda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning asosiy maqsadi, vazifalari, predmeti, obyekt, metodologiyasi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi haqida ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Badiiy olamning xronotopik manzarasi va romantizmning vujudga kelishi**” deb nomlanib, unda zamon va makon tushunchasi, ularning mavjudlik kasb etishi uchun zarur bo‘lgan hodisalar hamda bu zamon va makonga berilgan olimlarning nazariy fikrlari bayon etilgan. Bundan tashqari, badiiy zamon va badiiy makonning real makon va zamondan ajralib turuvchi xususiyatlari hamda badiiy matnlarning xronotopik ahamiyati bobning asosiy manbasi sifatida ko‘rsatilgan. Bunda lingvopoetik tahlil predmeti sifatida romantizm yo‘nalishi paydo bo‘lgan davrda yaratilgan asarlar tanlab olingan va romantizmning vujudga kelish jarayonlari ham shu bobda o‘z aksini topgan.

Ushbu bobning “Vaqt konsepti va badiiy zamon tushunchasining ilmiy nazariy bayoni” nomli birinchi faslida vaqt va badiiy zamon tushunchalariga ilmiy-nazariy ta’riflar berilgan va bu qarashlar misollar bilan tasdiqlangan.

Vaqtning dunyoning ajralmas qismi, olamning atributi sifatida anglashda falsafa uning makon va zamon kabi har qanday mavjudlikning asosiy shakllari ya’ni hodisalarning oddiy shakli emas, balki olam ma’lumotlarining obyektiv real shakli ekanligidan kelib chiqadi.

“Zamon va makonning metrik xususiyatlari olamning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlardir. Ularga bir jinslik, ko‘lam, izotoplilik kabi xususiyatlar kiradi.”⁷ Vaqtning ma’lum davriylik doirasida aylanishi yoki makonning mavjud miqdoriy xususiyati mavjudlik nuqtayi nazaridan o‘zaro nisbiy tushunchalardir. Ular tabiatda mavjud va makonning shakl xususiyati va zamonning ko‘lam darajasi ulardagi mavjud metrik jarayonni ifodalab beradi.

Badiiy zamon vaqtning boshqa shakl va tiplari singari davomiylikka egadir, bu davomiylik voqealarning davriy davomiylikni tashkil etgan asar fabulasini qamrab oladi. Voqealar davomiyligi turli mumtoz asarlarda makon va zamon birligidan tortib, epik ifodalanishgacha, ba’zan bir necha avlod hayotining davrlarini qamrab olishi mumkin.

Makon va zamon badiiy asarning ajralmas qismi bo‘lib, voqealar tizimining ketma-ketligi, haqqoniy va hayotiylikni ta’min etuvchi adabiy hodisadir. Badiiy vaqt hikoya qilib berish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Badiiy ijodda zamon va makonning o‘lchamlari shartli tarzda o‘zgarib turadi. Zamon siqilishi va uzayishi, to‘xtashi va orqaga qaytishi mumkin. Bu kabi munosabatlar qorishib ketishi, turli usullar vositasida o‘zgarishi ehtimoli bor. Shu asosda real shakl va badiiy shakl o‘rtasida shartlilik deb ataluvchi oraliq hosil bo‘ladi. Gegelning fikricha “Voqealarni bir butun yaxlit harakat sifatida tasvirlash, ularning bir-biri bilan kurashlari, yechimlari ko‘proq poeziyaga daxldor, qolgan barcha san’atkorlar uchun esa harakatlar rivojiga va voqealar zanjiriga faqat bir lahzagina qayt etish xos”.⁸

“Adabiyotda badiiy vaqt badiiy modellashtirish voitasini sifatida bevosita badiiy olamning to‘rtlamchi kordinati bo‘lib, u adabiy qahramonning borlig‘i va tasvir subyekti asosi hisoblanadi. Adabiy qahramonning borlig‘i konseptual

⁷ Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004. – 235 b.

⁸ Гегель Г. Лекции по эстетике. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1958. – С. 221.

vaqt tasvir subyektining borlig‘i esa perseptual vaqt hisoblanadi.”⁹ Hayotni uzoq muddat tinimsiz hikoya qilishning imkoni yo‘q. Shu sababli yozuvchi jarayon sodir bo‘layotgan davrni siqishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Zero, vaqtning tashkil etilishiga hamisha uning bo‘linishi, uzluksizligi orqali erishiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, badiiy vaqt real vaqtning o‘zgartirilganidir. Bu jarayon bir tekis bo‘lmagan holda, badiiy obraz, subyektiv va obyektiv asoslarni ijodiy sintezlashtiruvchi, asarning predmet qatlamini, nutq kompozitsiyasini yaxlitlikda tashkil etuvchi muallif g‘oyaviy konsepsiyasining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Badiiy zamon biror shaxs tomonidan yaratilishi va orqaga qaytishi, oldinga siljishi, o‘z o‘rnida siqilishi hamda kengayish xususiyatlari bilan xarakterli. Badiiy zamon asarning ko‘lamdorligini oshirishga va o‘quvchining fikriy darajasini kengaytirishga xizmat qilishdan tashqari, badiiy vaqtga nisbatan falsafiy yondashuvning chuqurlashishiga va ilmiy tasavvurning kengayishiga xizmat qiladi.

Ushbu bobning “Makon va uning turlari. Badiiy makon kategoriyasi” deb nomlangan ikkinchi faslida real makon va badiiy makon orasidagi farqlar haqida ilgari surilgan fikrlar va ularning tasdig‘i ko‘rib chiqilgan.

“Makon tushunchasi falsafada borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri sifatida dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibi, vaziyati, ko‘lami va miqyosini ifoda etishi ta’kidlangan.”¹⁰ Ko‘zga ko‘rinib turgan barcha obyektlarning tarkibi ma’lum bir materiyalardan tashkil topgan. O‘sha materiyalar esa falsafada umumiyashtirilgan holda tarkibiy nuqta deb yuritiladi. Barcha tarkibiy nuqtalar va ularning hayotiy faoliyati, qismlari, ko‘lami butun bir makonni tashkil etadi.

Kant ta’limoti bo‘yicha, “... makon va zamon inson tomonidan borliqni ravshanroq ko‘rish uchun ko‘zoynak singari o‘ylab topilgan tushunchalardir.”¹¹ Ya’ni, makon va zamon g‘oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma’lum; makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g‘oyalarda mavjuddir. Insonning tasavvur doirasida mavjud fikrlar uning makoniy va zamoniy tushunchalarini to‘ldiradi. Hech qanday makon va zamon materiyada mavjud emas. Bunda faqat fikrlar va tasavvurlar mavjud degan g‘oyani ilgari surgan.

Badiiy makon yozuvchining muhitni badiiy tasvirlashi emas, balki hayotiy haqiqatlarni badiiy haqiqat darajasiga ko‘tarishi, personajlarning holatga munosabatlari yoki yozuvchining shaxsiy munosabatlari birgalikda bir butun xronotopni tashkil etishidir. “Hayotning badiiy tasviri har doim mavjud qahramonning ichki xronotopi bilan murakkablashadi”¹².

Badiiy adabiyotda tahlil qilinadigan badiiy makon o‘zining tahliliy usuli va matn bayoniga nisbatan turli xil bo‘lishi mumkin. Badiiy makon doimiy ravishda badiiy zamon bilan birgalikda o‘rganiladi va buni adabiyotga rus olimi Mixail Baxtin xronotop atamasi bilan olib kirgan. Uni quyidagicha ta’riflaydi: “Adabiy-

⁹ Tўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол.фан.д-ри. ... дисс. автореферати. – Бухоро: Дурдона, 2022. – В. 5.

¹⁰ Yusubov D., Saitxodjaev X., Mavliyanov A. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Akademiyasi, 2012. – B. 98.

¹¹ Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004. – B. 234-235.

¹² Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Броитман С.Н. Теория литературы. – Москва: Академия, 2004. – С. 42.

badiiy xronotopda zamon va makon belgilari anglangan va aniq yaxlitlikda uyg'unlashuvi ko'zga tashlanadi. Bunda zamon tig'izlashadi, zichlashadi, badiiy sezilarli bo'ladi, makon esa zamon, syujet, tarix harakatlariga intensivlashadi, tortiladi. Zamonning ko'rinish belgi, alomatlari makonda namoyon bo'ladi, makon esa zamon orqali anglanadi va o'lchanadi"¹³. Makon mavjud bo'lgan tasvirda albatta zamon mavjud va zamon ham o'z navbatida makonni taqazzo qiladi.

Badiiy matnda ifodalanayotgan voqea haqidagi ma'lumotni bayon qilayotgan so'zlovchi zamoni va makonni o'zi joylashgan o'ringa va vaqtga nisbatan belgilaydi. Matn obrazlarining ijtimoiy o'rni so'zlovchining ifoda ko'lamiga nisbatan belgilanadi. Zamon o'lchovi va hodisalar joylashuvi u egallagan makonga nisbatan aniqlanadi.

Birinchi bobning "Fransuz adabiyotida romantizmning paydo bo'lishi" deb nomlangan uchunchi faslida Yevropa adabiyotida klassizm oqimlaridan sekin-astalik bilan qutulgan holda romantizm sari tashlangan qadamlar va undan realizmga tomon yo'nalish xususiyatlari tahlilini kuzatish mumkin.

"San'at va adabiyotning aniq tarixiy xronologik chegaralarga ega bosqichidek tushuniladigan romantizmdan farqli o'laroq, romantika alohida olingan shaxsning ruhiy-emotsional holati, ko'tarinki kayfiyatidir. U shaxsning bahri-dili ochiqligida, real sharoitlarda atrofdagilardan keskin farq qiladigan idealga, qolaversa, shaxsning yangilikka, sirli cheksizlikka, olam-fazo bepoyonlikka intilishida, hayotning zerikarli, bir zaylda kechishiga qarshi chiqishida namoyon bo'ladi."¹⁴

Yevropada ulkan ikki hududda yangilanayotgan muhit: Buyuk Britaniyada va Fransiyada ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy o'zgarishlarni adabiyot romantizm oqimi bilan birgalikda kutib oldi. Ya'ni ikki davrning keskin o'zgarish va burilishlarga boy bo'sag'asida romantizm adabiyoti yuzaga kelib, o'z davrining g'oyaviy-badiiy va mafkuraviy ifodalovchisiga aylandi. Turli badiiy va maxsus adabiyotlarda romantizm fransuz inqilobi va uning oqibatlariga javob reaksiya sifatida namoyon bo'ldi. Ammo adabiy romantizm tushunchasi turli milliy adabiyotlarda turlicha e'tirof etiladi. Fransuz inqilobi romantizmning nafaqat yuzaga kelishida, balki keyingi rivojida ham tutgan ulkan ahamiyatiga qaramasdan, u turli millatlar uchun umumiy bo'lgan adabiy hodisaning paydo bo'lishini belgilab beruvchi yagona va universal omil hisoblanmagan. Har bir milliy adabiyotda romantizmning kelib chiqishini va uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi dastlabki shart-sharoitlar, qolaversa yetarlicha asoslar mavjud bo'lgan. Vaholanki, romantizm paydo bo'lishida asosan Ma'rifatchilik davrining so'nggi bosqichlarida shakllangan muayyan badiiy-estetik asoslar bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Romantiklarning falsafiy-badiiy tafakkuriga dialektika, ya'ni harakat va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi falsafiy ta'limotning elementlari xos edi. Kishilar jamiyatidan nozik tabiati, sabotli fe'l-atvori, mustaqil dunyoqarashi, kamyob xislat va fazilatlar bilan ajralib turuvchi shaxslarni ajratib ko'rsatar edi. Romantiklarning fikricha, ularning har biri butun boshli olamni

¹³ Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 234-235.

¹⁴Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореферати. – Тошкент: Академия ноширлик маркази, 2016. – 82 б.

o'zida mujassam etardi. Ularning nazdida, ushbu shaxslarning har tomonlama kamol topishi, aqliy, ma'naviy, ruhiy, jismoniy etuklikka erishishi orqali barkamol shaxsga tomon yo'nalishdir. Romantiklarning qat'iy ishonchi bo'yicha, alohida millatlarning har tomonlama rivojlanishi orqali hamjamiyat yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Shuning uchun ham alohida olingan shaxsning qadr-qimmatini qaror toptirish, uni madh etish romantiklarning har bir millatga o'zgacha e'tibor bilan qarashiga olib keldi.

Romantizm ruhidagi individualizm, shubhasiz, kamdan-kam uchraydigan xislat va fazilatlarga ega shaxslarda ham mavjud edi. Ammo, yuksak madaniyatli, ajoyib xulq-atvorli shaxsni romantizm ruhida talqin qilishda aynan shu jihatlarga urg'u berish unchalik to'g'ri bo'lmasdi. Ko'pgina romantik shoir va yozuvchilarda shaxsni absolyut darajasigacha ko'tarish, uni ideallashtirish, nozik muomalali shaxsni ifodalash degani emas. Aksincha, ba'zida ijtimoiy tabaqaning eng quyida turuvchi shaxsning boy ma'naviy dunyosiga murojaat qilish individualizmning demokratik ohanglaridan dalolat beradi.

“Alfred de Myusse asarlari badiiy makoni va zamoni tahlili” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobi uch fasldan iborat bo'lib, unda asosan Alfred de Myusse asarlarida ifodalangan xronotop holatlari germinenitik tahlil asosida o'rganilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli “Alfred de Myusse asarlarida badiiy zamonning o'ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan.

XIX asr boshlarida Yevropada romantizm oqimi vakillari bilan bir qatorda adabiyotshunoslikda realizm yo'nalishi namoyondalari ham sekin-asta ko'zga tashlana boshladi. Bu davrda ijtimoiy muhitga insonlar qarashlari birmuncha o'zgargan va insonlarda haq-huquqlarni talab qilish, erkinlik uchun kurashish kerakligi va kelajak xalq qo'lida ekanligiga ishonish tobora ortib bordi. Bunday ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy muhit o'z navbatida yozuvchi va shoirlarning ham o'ziga xos janrlarda ijod qilishga undadi. Bu davr ko'plab yozuvchilarining asarlarida romantizm va realizm nafasining uyg'unlashganligini va unda asosan yozuvchilar realistik obrazlarni asarning mukammal jihati sifatda tasvirlaganliklarini kuzatish mumkin. Jumladan, A. Myusse o'zining asarlarida romantik obrazlar bilan bir qatorda realistik personajlarni ham bir-birini inkor qilish vaziyatiga qo'ygan holda murakkab syujetlar yaratgan. Masalan uning “Asr farzandining dil izhori”, “Emmelin”, “Muhabbat bilan o'ynashmang”, “Lozzensio” kabi asrlarida ham romantizm, ham realizm yo'nalishiga oid holatlar, obrazlar va syujetlarni ko'rish mumkin. A. Myusse asarlaridagi yana bir o'ziga xoslik shundaki, yozuvchi tanlagan badiiy zamon asosan insoniyatning qorong'u olamida kechadi. Bu holatni tabiiy ravishda ijodkor yashagan davr muhitiga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'lash o'rinli. Urushlardan charchagan, tazyiqlar ostida qolgan hamda adolatsizliklar qurboni bo'lgan xalq nafaqat tinchlikni, balki erkinlik va hurlikni ham qumsar edi. A. Myusse ana shu og'ir davrni qalamga olgan holda, uning mash'um oqibatlarini haqida o'zining asarlarida shaxsiy fikrlarini ifodalagan va ko'proq tun obrazidan foydalangan. Uning asarlarida ifodalangan badiiy zamon va badiiy makon asosan qahramonlar xayoloti va ko'ngil kechinmalarida gavdalanadi.

San'atkor ixtiloflarga to'la tarixiy davrlarni tanlab olganida, asar syujetida adabiy voqelik real vaqt va makonga bog'liq bo'lib qoladi. "Ijodkor shaxsning o'tmishga munosabati o'zini anglash, anglaganida ham o'zini o'zgaralar tomonidan anglanishi ehtiyoji bilan yuzaga keladi"¹⁵. Asar davri sifatida tarixiy syujet tanlanadigan holatlarda, yozuvchi avvalambor yoritmoqchi bo'lgan davrni o'zida his etishi va uni o'quvchiga bekamiko'st yetkazib berishi jarayonida badiiy zamon va badiiy makon ifodasi muhim o'rin kasb etadi. A. Myusse ijodida kuzatiladigan badiiy zamon aynan tarixiy faktlarga va ilmiy munozaralarga tayanadi.

*Doucement bercé sur sa mule fringante, messer Blazius s'avance dans les bluets fleuris, vêtu de neuf, l'écritoire au côté. Comme un poupon sur l'oreiller, il se ballote sur son ventre rebondi, et les yeux à demi fermés, il marmotte un Pater noster dans son triple menton. Salut, maître Blazius; vous arrivez au temps de la vendange, pareil à une amphore antique*¹⁶. Ma'nosi: O'zining chaqqon eshagi ustida osuda kelayotgan Blazius gullagan bluet taqib olgan yangi kiyimda yaqinlashib kelyapti. Yostiqlik ustidagi qo'g'irchoq kabi yumaloq qornini qimirlatib qo'yayapti, ko'zlari yarim yumiq, sekingina Pater noster deb til uchida ming'illayapti. Salom, Blazius xo'jayin, ayni uzum uzish vaqtida kelasiz, katta vino soladigan ko'zamizga o'xshab.

Bu parcha Alfred de Myussening "Muhabbat bilan o'ynashmang" nomli komedia janrida yozilgan dramatik asari hisoblanib bu gap Le Cheaur laqabli asar qahramonining tilidan olingan. Dramatik asarlarning deyarli barchasida makon to'liq aniqlikda ifodalanishi mumkin, ammo yuqoridagi asarning boshlanish qismida va izoh qismida ham jarayonlar qachon sodir bo'layotganligi ifodalanmagan. Bunda yozuvchi asar davomida ko'rsatilayotgan vaqt indikatorlari orqali anglashga majbur qilishi ko'zda tutilgan. Parchadagi ayrim iboralar jarayonning qachon va qaysi mahalda sodir bo'layotganini ifodalab kelmoqda. Masalan, *dans les bluets fleuris* so'z birikmasi orqali janob Blezius sobiq askar ekanligini anglash mumkin. Fransiyada XIX asrda bo'tako'z guli birdamlik va xotira ramzi hisoblangan. Buni taqib yuruvchilar urush jinoyatlariga, qari askarlar o'rnini bosuvchi yosh askarlar guruhi hisoblangan va bular propagandachilar ham deb nom olgan.¹⁷ Bundan tashqari, *au temps de la vendange* birikmasi ham zamon ko'rsatgichlaridan biri sifatida ko'riladi. Bunda uzum yig'im-terim vaqti ifodalanayotganini va Fransiyada bu mavsum qaysi oylarga to'g'ri kelishini aniqlash jarayon qaysi vaqt sodir bo'layotganligini bilishga yordam beradi. Ya'ni bu jarayon iyul oyida boshlanib oktabr oyigacha davom etadi.¹⁸ Yuqoridagi bo'tako'z guli va uzum yig'ish mavsumi bir biriga taqqoslanganda jarayonlar yoz oyining oxirlarida sodir bo'layotganligi anglashiladi.

Alfred de Myussening barcha asarlarida jamiyatda ko'zga tashlangan ammo xalq tomonidan yashirilgan, qalamga olinmagan mavzular hamda bu mavzularning dekadentlik¹⁹ holatidagi kompozitsiyalarini uchratish mumkin. Shunga ko'ra uning

¹⁵ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 110.

¹⁶ Alfred de Musset. On ne badine pas avec l'amour. – Paris: Bibliothèque électronique du Québec, 1834. – P. 7.

¹⁷ Manba: fr.wikipedia.org/wiki/Bleuet_de_France

¹⁸ Manba: fr.wikipedia.org/wiki/Vendange

¹⁹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 87.

asarlaridagi badiiy xronotop ham o'z davri doirasida kechadi. Yuqorida tilga olingan "Asr farzandining dil izhori" asari ham avtobiografik asar hisoblanib, undagi jarayonlar yozuvchining hayoti davomida sodir bo'lgan voqea hodisalarning uch yilligini o'z ichiga oladi va asarning asosiy mazmuni yozuvchining balog'at yoshiga yetgandan so'ng kechadigan tuyg'ular asosida boshlanadi. *J'avais alors dix-neuf ans; je n'avais éprouvé aucun malheur ni aucune maladie; j'étais d'un caractère à la fois hautain et ouvert, avec toutes les espérances et un cœur débordant. Les vapeurs du vin fermentaient dans mes veines; c'était un de ces moments d'ivresse où tout ce qu'on voit, tout ce qu'on entend vous parle de la bien-aimée. La nature entière paraît alors comme une pierre précieuse à mille facettes, sur laquelle est gravé le nom mystérieux.*²⁰ Ma'nosi: *Men o'shanda o'n to'qqiz yoshda edim; Men na baxtsizlikni, na kasallikni boshdan kechirgan edim; menda bir vaqtning o'zida ham mag'rur, ham ochiq-oydin, barcha umidlar va qalblar to'lib-toshgan xarakter bor edi. Tomirlarimdan sharob bug'lari yugurdi; ko'rgan, eshitgan hamma narsa sevgan insoning haqida gapiradigan mastlik lahzalaridan biri edi. Shunda butun tabiat ming qirrali, sirli nom bilan o'yilgan qimmatbaho toshdek namoyon bo'lardi. Yuragi g'ururga to'lgan, umidli va muhabbatga tashna bu yosh yigitni ilk hayratlari maskarad kechasidan boshlanadi. U yerdagi insonlarning xatti-harakati uning jamiyat haqidagi tasavvurlarini o'zgartirib yuboradi. Yuqoridagi parcha asarning uchinchi bobining boshlanish qismi hisoblanib uning birinchi vaqt ifodalovchi badiiy zamon birliklarini quyidagi qatorda anglash mumkin: *Je me relevai parfaitement calme, demandai une autre fourchette et continuai à souper*²¹. Ma'nosi: *Men ohista joyimga ko'tarildim, boshqa vilka so'radim va kechki ovqatni yeyishda davom etdim.* Bu yerda *souper* so'zidan anglash mumkinki, ular kechki ovqat vaqtida va albatta stol atrofida yoki dasturxon davrasida. U yerda stul va stollar borligini ham ko'rsatuvchi birliklar (*relevai*) ham mavjud. Badiiy zamon ifodasiga qaratilgan diqqat paralell ravishda o'sha vaqt sodir bo'lgan jarayonlarning ma'lum makonga tegishli ekanligini ko'rsatishga majburdir.*

Alfred de Myusse asarlarida qo'llanilgan badiiy zamonning o'ziga xosligi bu – tasvirlanayotgan jarayonning ma'lum bir aniq vaqt belgilarisiz (aniq kun, aniq sana, aniq soat va aniq yil) ifodalanishidir.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "Alfred de Myusse asarlari badiiy makonning lingvopoetik tahlili" deb nomlangan bo'lib, unda badiiy asardagi makonni belgilovchi holatlar ko'rib chiqilgan.

Asarlarda syujet jarayonlarini tasvirlash uchun qo'llaniladigan makon konkret hayotda duch kelinadigan makon holatidan katta farqga ega emas. Ammo bunda badiiy makonning lingvistik va poetik xususiyatlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Rus adabiyotshunosi D.C. Lixachev o'zining "Rus adabiyotining tarixiy poetikasi" asarida makon haqida "Yozuvchi o'z asarida voqea sodir bo'ladigan muayyan makonni yaratadi. Bu makon hududi katta bo'lib, bir qancha mamlakatlarni o'z ichiga olishi mumkin (sarguzasht yoki safarnoma tipidagi asarlar), hatto voqea yer

²⁰ Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 48.

²¹ Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 49.

sharining chegarasidan chiqishi mumkin (fantastik romanlarda) va kichik bir xonada yuz berishi mumkin”²² – degan fikrlarni bildirgan. Adabiy matnlarda uchraydigan badiiy makon turli holatlarda turlicha ko‘rinishga ega bo‘la oladi.

Alfred de Myusse asarlarining aksariat qismi dramaturgiyaga aloqador bo‘lganligi sababli ularda qo‘llanilgan badiiy makon aniq va tarixiy qolipdagi qoidalarga bo‘ysunadi. “Ma’lumki, dramatik turga mansub asar ijodkorni badiiy makon va zamon bobida ancha cheklab qo‘yadi. Buning sababi tabiiyki, dramatik asarning sahna uchun mo‘ljallanganligi bilan izohlanadi. Ijro vaqtiga sig‘ish uchun asarning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanuvchi syujetga tayanib qurilishini taqozo qiladi. Ravshanki, bu xil syujetning rivojlanish vaqti ham chegaralangan, shu bois ham syujet voqealari, sabab-natija munosabatlari asosida konsentratsiyalanadi. Voqealar orasidagi sabab-natija munosabati esa ularning makon va zamon jihatidan yaqin bo‘lishini taqozo qiladi”²³. Syujet aniq muhitda aniq makonda va aniq vaqtda sodir bo‘ladi. Masalan, “La nuit Vénitienne” (Venetsiyadagi tun) pyesasining birinchi sahnasi quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi:

Une rue; il est nuit.

Razetta descend d’une gondole. Laurette paraît à un balcon

- Razetta: Partez-vous, Laurette? Est-il vrai que vous partiez?²⁴...

Ma’nosi:

Ko‘cha; yarim tun.

Razetta qayiqdan tushdi. Balkonda Laurette ko‘rindi.

- Razetta: *Lauret siz ketayapsizmi? Ketishingiz rost ekanda?...*

Bu pyesa tunda ko‘cha bo‘yida sodir bo‘ladigan voqea bilan boshlanadi. Badiiy makonni suv bilan o‘ralgan ko‘cha, yarim tun va chiroqlar yoniq, kichik qayiqning uylar yonida bog‘langan holati va uyning ikkinchi qavatidagi Lauret chiroqlar yorug‘ida Rozettaning nigohiga tushganlik holatlarini tasavvur qilish orqali anglash mumkin. Bu xayoliy tasavvurlarga yuqorida berilgan ikki qator tasvir orqali erishiladi.

Asarlarda xronotop xususiyatini tahlil qilishda avvalambor uning ichki va tashqi xronotopga ajratgan holda tahlil qilinadi. Tashqi xronotop bu yozuvchining olam haqidagi tasavvurlari, uning tashqi olam xususidagi chizgilari mahsuli o‘laroq, ichki xronotop doirasini esa yozuvchining xayoliy olamini, uning ichki his tuyg‘ularini, jarayonga bo‘lgan shaxsiy qarashlar qamrab oladi. Alfred de Myusse asosan ichki xronotop xususiyatlariga tayangan holda ijod qilgan yozuvchilardan. Uning barcha asarlarida inson ichki kechinmalari, insoniy intim tuyg‘ular tasviri ustuvorlik qilgan.

“Zamonda yo‘qolish – o‘tmishning cheksizligi va kelajakning cheksizligidan, makonda yo‘qolish – har bir tirik jonning cheksiz kattalikdan va cheksiz kichiklikdan juda uzoqda ekanligidir. Hech kim ma’lum bir kunda va ma’lum bir joyda yashamaydi”²⁵. Insoniyat tarixida zamon va makon tushunchasi ustida yuritilgan fikrlar haligacha tugal xotimaga erishgan emas. Yuqoridagi fikr ham bir

²² Лихачев Д.С. Историческая поэтика русской литературы. – Санкт-Петербург: Алетея, 2001. – С. 129.

²³ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 236.

²⁴ Alfred de Musset. La nuit vénitienne; Fantasio; Les caprices de Marianne. – Paris: L’édition d’ars, 1833. – P. 20.

²⁵ Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012. – B. 4.

olimning o‘z dunyoqarashi va falsafiy mulohazalari orqali vujudga kelgan ilmiy nazariyadir. Aniq va real makonning ilmiy ta’rifini anglashning soddarroq usuli bu badiiy adabiyotda qo‘llanilgan makon holatini tasavvur olamida mujassamlashdir. Bunda anglashiluvchi obyektни quyidagicha tasavvur qilish mumkin: *“Cependant l’immortel Empereur était un jour sur une colline à regarder sept peuples s’égorger; comme il ne savait pas encore s’il serait le maître du monde ou seulement de la moitié, Azraël passa sur la route; il l’effleura du bout de l’aile, et le poussa dans l’Océan.”*²⁶ Ma’nosi: Ammo, o‘lmas imperator bir kuni o‘z tepaligida etti nafar begunohning bo‘g‘izlanishini kuzatdi; butun dunyoni egallashga ulgurmagani, vaholanki, uning yarmini egallaganligini hali anglab ham yetmagan hukmdorni Azroil o‘z qanotlari bilan silab o‘tdi va ummonga itarib yubordi. Ya’ni, inson tasavvur dunyosida mavjud bo‘lmagan zamon va makon bilan qurshangan. U ko‘zi bilan ko‘rib turgan narsalarni idrok etadi va o‘zgalarga yetkaza oladi. Parchada keltirilgan o‘lmaydigan (immortel) deb tasvirlangan qirol bir lahzada Azroil tomonidan joni olinganligini va u endi qayerda va qachon mavjud ekanligini anglamaydi va bilmaydi. Bunda Azroil personaji inson tasavvurining noaniq ko‘rinishidagi holati va uni badiiy obrazi hammaning tasavvurida turlichadir. Azroilning qanoti va imperatorning okeanga qulashi majoziylik xususiyatiga ega. Yoki, *“Ils ont vu que le pauvre se laissait opprimer par le riche, le faible par le fort, par cette raison qu’ils se disaient: Le riche et le fort m’opprimeront sur la terre ; mais quand ils voudront entrer au paradis, je serai à la porte et je les accuserai au tribunal de Dieu.”*²⁷ Ma’nosi: Ko‘rishdiki, kambag‘allar boylar tomonidan, zaiflar kuchlilar tomonidan ezilishdi, shuning uchun ular o‘z-o‘zlariga: boylar va kuchlilar er yuzida bizga zulm qiladilar; lekin ular jannatga kirmoqchi bo‘lganlarida, biz eshik oldida ularni Xudoning mahkamasida ayblaymiz. Ollohning uyining eshigini hech kim ko‘rmagan va u haqida aniq tasavvur mavjud emas. Shu sababli yuqoridagi badiiy holatni har kim o‘z talqinida idrok etadi. Bunda badiiy xayolot kengligi va diniy ilmning o‘rni ham muhim hisoblanadi. Ammo yozuvchi yuqoridagi parchada badiiy makon sifatida tanlagan hudud o‘zining tasavvurida mavjud bo‘lganligi uchun u asarning bir qismi bo‘lib shakllangan va bunday tasvir makromakon tasviri hisoblanadi. Gap avvalida yer yuzidagi boylarning kambag‘allar ustidan qilgan zulmi va ikkinchi satrga kelib makonning arshga ko‘chishi ya’ni Olloh so‘rovxonasiga o‘tishi megamakonlararo badiiy ko‘chimning ko‘rinishini ifoda etadi. Bu qahramonning hayot haqidagi badiiy fikrlarining murakkablashganligini ko‘rsatadi. “Hayotning badiiy tasviri har doim mavjud “men” (qahramon)ning ichki xronotopi bilan murakkablashadi”.²⁸ Badiiy makon va zamonni ifodasi badiiy asarda qahramonning olam haqidagi badiiy qarashlari bilan belgilanadi. Alfred de Myussening olam va odam haqidagi fikrlarining kengligini uning insoniy muhabbat va olohga bo‘lgan ishonchning bir asarda uyg‘un tarzda gavdalantirganligi bilan baholash mumkin.

Ikkinchi bobning uchunchi fasli “Alfred de Myusse she’riyatidagi badiiy xronotop poetikasi” deb nomlanadi.

²⁶ Alfred de Musset. La Confession d’un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 10.

²⁷ Alfred de Musset. La Confession d’un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 40.

²⁸ Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. – Москва: Академия, 2004. – С. 42.

Alfred de Myusse o'z asarlarida romantik holatlarning barcha ko'rinishlarini tilga olgan: dard, alam, azoblanish, tun, yolg'izlik, muhabbat va hokoza. Uning asarlariga fundamental g'oya sifatida insonning insonga bo'lgan muhabbati ko'rsatiladi. She'rlarida yozuvchi muvaffaqiyatsizlikka uchragan muhabbatni kuylaydi. Jorj Sand bilan bo'lgan ishqiy munosabati uning asarlarining asosiy mavzularidan biridir.

Yozuvchining miyasini xotiralar, nafrat va umidsizlik qurshab olgan va bu umidsizlik shoir uchun buyuk she'rlar yaratishga muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Myusse she'riyatga murojaat qilishdan oldin boshqa janrlarni sinab ko'rdi. Drama, roman va she'r janrlari orasidagi farqni u quyidagicha izohlaydi: "Romanchi, dramaturg, ilohiyotchi, tarixchi va faylasuf faktlar (obyektlar) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'radi; Shoir esa mohiyatni tushunadi"²⁹. Myussening fikricha, shoirda tug'ma daholik bor. U ijtimoiy masalalarga qiziqmaydi. Uning uchun tabiatda kashf etilishi kerak bo'lgan juda ko'p sirlar mavjud va u ular bilan mashg'uldir.

Rus olimi Y.M. Lotmanning yozishicha, "Muallif matnni bir vaqtning o'zida bir necha kodlar tizimida ishlovchi qilib quradi. Undagi har bir yangi qism xotirada avvaldan mavjud kodni "tiriltirishi", ular prizmasidan o'tishi, mazkur ikki tomonlama munosabatdan yangi ma'no-mohiyat kasb etishi va matnning go'yoki oldindan ma'lum ma'noga ega qismiga yangi ma'no berishi kerak. O'quvchi badiiy matnga xabar beruvchi oddiy nutq deb qarashga moyil bo'lib, har bir lavhadan ma'lum axborotni ajratib olarkan, bu bilan, avvalo, alohida-alohida hodisalarni kompozision qurilish va vaqt bo'ylab mantiqiy izchillikda jamlaydi"³⁰. "Tunlar" she'riy to'plami Myusse tasavvuridagi zamonning imtiyozli o'rnini ko'rsatadi va uning xayoliy olamini ochib beradi. Myusse yilning to'rt xil faslida tun manzarasini chizishga harakat qiladi va shu tariqa u hayotidagi sevgisining muvaffaqiyatsizliklarini ko'rsatadi. Tun shoirning sirlarini yashiradi. Shoir o'z ishqining barbod bo'lishi haqidagi haqiqiy voqeani badiiy adabiyot unsurlari va obrazlaridan foydalangan holda hikoya qiladi.

*"C'est une étrange vision,
Et cependant, ange ou démon,
J'ai vu partout cette ombre amie."*³¹

Ma'nosi:

*Bu bir yovvoyi sharpa
Shaytonmi yo farishta
Hamma joyda uning soyasi.*

Jin hayvonlarning qo'rqinchli tasvirida ishtirok etadi va shoir o'z tasavvurida doimo ko'radigan qora soya bilan taqqoslanadi. Bu barcha tasvirlar, qo'rqinchli hayvon va sovuq tun, yozuvchini xavotirda tutib turadi. Shoir esa bu dahshatli ko'rinishdan qochib qutula olmaydi.

"Sur mon rideau j'ai vu passer une ombre;

²⁹ Alfred de Musset. Le Poète et Le Prosateur, Oeuvre posthumes. – Paris: Charpentier, 1888. – P. 151.

³⁰ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Санкт-Петербург: Искусство, 1998. – С. 251.

³¹ Musset A. Poésies complètes. – Paris: Gallimard, 1957. – P. 311.

*Elle vient s'asseoir sur mon lit.
Qui donc es-tu, morne et pâle visage,
Sombre portrait vêtu de noir?
Que me veux-tu, triste oiseau de passage.*"³²

Ma'nosi:

Pardalarda ko'rdim soyani
Mening yotog'imga o'tirib olgan
Sen kimsan, ey sharpa, oqargan,
Nima xohlaysan bir dili siyohdan

To'shakda ko'ringan soyaning yuzida qushning dahshatli surati paydo bo'ladi. Bu yerda muallif o'zini uchayotgan qush kabi qora kiyingan soyaning o'rniga qo'ydi. U bu soyani uchib yuradigan qushdek tasavvur qiladi va u doimo o'z vaqtini shu bilan o'tkazadi. Bu o'lim bilan tugaydigan hayot oqimining ramzidir.

"... xronotop lirik kompozitsiyaning asosi sifatida she'rning mazmun va shakl strukturasi birlashtirib turadi. Xronotop shoir badiiy idrok etgan zamon va makonning, undagi obraz, peyzaj, detallar harakatining jonli va ishonchli chiqishini ta'minlaydi"³³.

"Le poète

*Quand j'ai traversé la vallée,
Un oiseau chantait sur son nid.
Ses petits, sa chère couvée,
Venaient de mourir dans la nuit."*

Ma'nosi:

*Vodiylarni kezgan chog'imda
Qushlar sayrar o'z inlarida
Uning jajji polaponlari
Tunda o'lib bo'lgan edilar.*

Badiiy adabiyotda qushlarning kuylash syujeti jarayonning ijobiy xususiyatidan dalolat beradi, lekin bu erda qushning bolalari o'lish arafasida turgan g'amgin jihati ko'rsatilgan. Darhaqiqat, u o'lim bilan tugaydigan dahshatli vaqtni ko'rsatadi. Vaqt quvib, o'ljasini izlaydi, panjasiga oladi va o'ldiradi.

Bu parchadagi ifodalar majoziy xususiyatga ega hisoblanib, qush va uning polaponlari orqali vaqtning kuchli qudrati va o'lim har bir tirik mavjudodning duch keluvchi holati ekanligi ifodalanmoqda. O'tib borayotgan vaqt esa bizni shu o'lim sari yetaklamogda.

A. To'ychiyev lirika haqida quyidagi fikrlarini aytib o'tgan: "San'at asarlari orasida lirikada ta'sirchanlik, shartlilik nuqtayi nazaridan eng yuqori darajadadir. Bu yerda ishonchli bo'lishi uchun makon obrazi hozir bo'lmasligi mumkin. Ayni o'sha vaqtda lirika narsa-predmet dunyosi va uning real makonini takror yaratishga

³² Musset A. Poésies complètes. – Paris: Gallimard, 1957. – P. 315.

³³ Юлчиев Қ. Хронотоп – лирик композиция асоси // FarDU ilmiy xabarlari. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2018. – B. 91.

layoqatli”³⁴. Syujet jarayonida badiiy makon ifodalanmay qolishi yoki noaniq holatda ko‘rinishi lirika qonuniyatlariga mos jihatlardan biridir. Myusse lirikasida esa ana shunday noaniqliklar kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Alfred de Myusse asarlarida xronotop xususiyatlarining poetik talqini**” deb nomlangan va uch fasldan iborat. Ushbu bobning birinchi fasli “Asr farzandining dil izhori asarining poetik tahlili” deb ataladi.

Alfred de Myussening “Asr frazandining dil izhori” romani romantizm realizmga qarshi qonli yo‘qotishlar muhitida yozilgan. Tabiiyki, bu ikki harakat o‘rtasidagi kurash hayotda qanday bo‘lsa, asarda ham shunday aks ettirilgan. Bu kurash romanning bosh qahramonlari Dejene va Oktav orqali amalga oshiriladi. Dejene – mukammal realist, Oktav – tuzatib bo‘lmaydigan romantik obraz sifatida gavdalantirilgan. Bu asar avtobiografik asar sifatida qaraladigan bo‘lsa, Myusse qaysi tomonda ekanligi aniq emas. Uning ruhi to‘liq Oktav, lekin u butun borlig‘i bilan Dejene bo‘lishni xohlaydi. Qaysidir ma'noda, Dejene – yozuvchi o‘zining hayotida shunday shaxs bo‘la olmagan, ammo unga o‘xshashni xohlaydigan personaj; lekin u buni hech qachon amalga oshira olmaydi, butun umrini Oktav bo‘lib o‘tkazadi, har doim chin yurakdan sevadi, xiyonatdan iztirob chekadi. Dejene – Oktavning aldanganligi bilan ma’no kasb etadigan personaj. Yozuvchi bu qahramon orqali hayotning mavhum tushunchalariga o‘zining shaxsiy fikrlarini beradi. Masalan, mukammallik (komillik) haqida quyidagi ta’rifni bergan edi: “*La perfection, ami, n’est pas plus faite pour nous que l’immensité. Il faut ne la chercher en rien, ne la demander à rien, ni à l’amour, ni à la beauté, ni au bonheur, ni à la vertu; mais il faut l’aimer, pour être vertueux, beau et heureux, autant que l’homme peut l’être*”³⁵. Ma’nosi: “Mukammallik, do‘stim, biz uchun cheksizlikdan boshqa narsa emas. Biz uni hech narsada izlamasligimiz, hech narsada so‘ramasligimiz kerak, na sevgida, na go‘zallikda, na baxtda, na ezgulikda; lekin inson uni sevishi, qo‘lidan kelganicha go‘zal va baxtli bo‘lishi kerak”. Komillik haqidagi g‘oyalar XIX asrda mavjud edi va uning bu dunyoda mukammal namunasi mavjud emasligi ayon bo‘lgan holda unga qarab intilib yashash har bir ziyoli insonning azaliy maqsadi bo‘lgan.

Oktavning xarakteri romantik xususiyatga ega. O‘z davrining romantik asarlari ta’sirida bo‘lgan va “asr vabosi (mal du siècle)”ga chalingan Oktav mehr va muhabbat bilan sevadi va sevgisiga to‘lib-toshgan yuragi butun borliqni katta ishtiyoq bilan qarshilaydi. *j’étais d’un caractère à la fois hautain et ouvert, avec toutes les espérances et un cœur débordant.*³⁶ Ma’nosi: Menda ham mag‘rur, ham ochiqko‘ngil, butun umidlari va qalbi to‘lib-toshgan xarakter bor edi. Bunday romantik tabiatga ega bo‘lgan va sevgini hayoti bilan sinonimga aylantirgan Oktav uchun aldanish katta halokat bo‘ldi. Deyarli barcha romantiklarda bo‘lgani kabi, bu obrazda ham o‘z his-tuyg‘ularida soxta xatti-harakatlar umuman sezilmaydi, u butun qalbini sevgilisiga taqdim etadi. Oktav yozuvchilar va shoirlar tasvirlagan

³⁴ Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – Б. 31.

³⁵ Alfred de Musset. La Confession d’un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 88.

³⁶ Alfred de Musset. La Confession d’un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 48.

sevgiga ishonadi va u buni hayotida amalda aks ettira olmasa-da, befoyda yo‘qotishlar va osmonga qilgan faryodlarining alamli azoblariga chiday olmasligidan afsuslanadi.

Napoleonning surgunga ketayotganini ko‘rgan barcha yoshlar singari, Oktav ham o‘zini yolg‘iz va g‘amgin his qiladi, bir kechada o‘zini ishongan insonlari tomonidan tashlab ketiladi ya‘ni, yolg‘izlikni butunlay his etadi va uni beadablik bilan aldagan ayol nafaqat barcha qadriyatlarini, balki muhabbatga bo‘lgan ishonchini ham yo‘qotganini, uning holati abadiy ajralishga mahkum erkaklar va ayollarning o‘zlarining mavjud bo‘shliqlarini yashirish uchun buzuqlikka botingan hayot qiyofasida ekanligini va ularning muhabbati “athéisme”³⁷ (xudosizlik)ga xoslanganligini anglash mumkin. Ammo Pol Benichou ta‘kidlaganidek, yozuvchining yoshligi 1830-yillar atrofida kechganini³⁸ va asar boshida tilga olingan yo‘qotilgan avlod bu Alfred de Myusse tengdoshlari emasligini ta‘kidlash lozim. Vaholanki, Imperator taxtdan qulaganda u atigi besh yoshda edi. Napoleonning afsonaviy siymosining yo‘qolishi Myussega uning tengdoshlari yashayotgan hayotda bo‘shliqning hosil bo‘lishiga asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rinadi. II bobdan so‘ng, umidsiz, katta ishonchsizlikka uchragan, qahramon sahnada paydo bo‘ladi. Nafaqat, Myusse bu tushkunlik holatidan nafratlanadi va romantik melanxoliyani idealizatsiya qilishni rad etadi, balki u yaratgan qahramon Oktav Gyote, Bayron, Shatobrian yoki Vigni tomonidan yaratilgan mashhur qahramonlarning epigone (taqlidchisi) emasligini ham takidlaydi. Asar boshidan so‘ngiga qadar bir shaxs tarixi berilgan bu asarda ko‘tarilgan muammo juda muhim, ya‘ni unda asosiy obraz sifatida ko‘tarilgan “mal du siècle” va uning yozuvchi hayotiga aloqadorligining ahamiyatligidir.

Bu dahshatli kasallik alohida bir shaxsga emas, balki bir butun ommaga qaratilgan edi. Ushbu qisqacha muqaddimadan so‘ng asar syujeti darhol tarixiy yovuzlikning tasviri uning makon va zamon xususiyatlariga ta‘rif berishi orqali davom etadi. Bunda yozuvchi o‘z tilidan jamiyatning turli tabaqa vakillarini tilga kirgizgan holda ularning hayot haqidagi fikrlarini bayon etadi : *En sorte que les riches se disaient: Il n’y a de vrai que la richesse; tout le reste est un rêve; jouissons et mourons. Ceux d’une fortune médiocre se disaient: Il n’y a de vrai que l’oubl; tout le reste est un rêve; oublions et mourons. Et les pauvres disaient: Il n’y a de vrai que le malheur; tout le reste est un rêve; blasphémons et mourons.*³⁹ Ma’nosi: *Boylar bunday fikrlaydi: Boylikdan boshqa haqiqat yo‘q; qolganlari orzudir; rohatda yashaymiz va o‘lamiz. O‘rtahol aholi esa bunday fikrlaydi: unutishdan boshqa haqiqat yo‘q; qolgan barchasi orzu; unutamiz va o‘lamiz. Va kambag‘allar bunday fikrlashadi: baxtsizlikdan boshqa haqiqat yo‘q; qolgan barchasi orzu; noliyveramiz va o‘lib ketamiz.* Imperatorlik davri va uning qulagandan keyingi davri bu o‘tish davri hisoblanadi. Porloq kelajak uchun qaysidir bir avlod badal to‘lashi kerak va “Asr farzandining dil izhori” asarida o‘sha badal to‘lovchi jamiyat hayotini yoritish maqsad qilingan edi. Bunda boylar

³⁷ George Sand. Correspondance. – Paris, 1835. <https://www.alfred-de-musset.com/george-sand-3/>

³⁸ Bénichou P. L’Ecole du Désenchantement. – Paris: Gallimard, 1992. – P. 541.

³⁹ Alfred de Musset. La Confession d’un enfant du siècle. – Paris: Bibliothèque nationale de France, 1836. – P. 38.

o'ta boy, kambag'allar o'ta kambag'al va bu kambag'allikdan chiqish uchun deyarli hech qanday yo'l yo'q. Mana shunday sharoit: qonunlarning ishlamasligi, yuqori tabaqa vakillarining xohish-istaklarining amalda qo'llanilaverishi, jamiyatda aniq boshqaruv tizimining yo'qligi va ijtimoiy adolatsizlik yozuvchini yuqoridagi fikrlarni ifodalashga majbur qilgan.

“Alfred Myusse qahramonlari hayotida “mal du siècle”ning paydo bo'lishi” deb nomlangan ushbu ikkinchi faslida “mal du siècle” (asr vabosi)ning vujudga kelishi va uning yozuvchi asarlari syujetiga ta'siri tahlil qilingan.

XX asrning ikkinchi yarmida bosib chiqarilgan ko'plab maqolalar “mal du siècle” (asr vabosi)ni jamiyatga kirib kelganligi haqida bong urishdi va izlanuvchilar ularning jamiyatdagi ishlatilish iboralarini va so'z birikmalarini ilmiy klassifikatsiya qilishdi. Haqiqatdan ham bu davrda “mal du siècle” izlanuvchilarning keyingi yangi shajarasi yuzaga chiqdi.

Simone Bernard-Griffithsning “mal du siècle”ga bag'ishlangan asarida quyidagi fikrlarni uchratish mumkin: “Asr vabosining asosiy xarakteristikasi ruhiy sababiyatga qaramasdan, ularga imtiyoz beradigan teskari determinizmlarning doimiy ijrosida tanaga va ruhga erishishidan iboratdir.”⁴⁰ Ya'ni, asr kasalligi insonni ruhiy olamini tark qilgan holda, faqatgina tana ehtiyojlariga asoslangan huzur turlaridan biridir. Bunda tana va ruh mavjud, ammo ruhning hech qanday insonning obyektiv hayotida roli mavjud emas.

Romantizm shoirning adabiy e'tiqodi barbod bo'lishi, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy illyuziyalarning yo'qolishi qarshisida “taranglik va tushkunlik”ning yorqin dalili edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, hozirgi ijtimoiy tartibsizliklar davrida demokratiyaning tug'ilishi, uning qiyin kechishi, dunyoviy iyerarxiyaning so'nggi olovlari tomoshasidan chalg'ib, subyektning haqiqiy inqiroziga olib keldi. Myusse, tabiiyki, birdaniga xilma-xil magma, tarqoq olomon bilan to'qnash kelgan avlodning sustligini meros qilib oladi, u o'zini tanib olish va yolg'iz ruhini qabul qila oladigan boshpana topa olmasligi sababli alamli hayotni boshidan kechiradi.

Uchunchi bobning uchunchi fasli “Obraz, syujet va xronotop o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlar” deb nomlanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning chuqurlashuvi, shuningdek, inson taqdirining asosi sifatida asarda turli xil shakllarda bayon etilgan moddiylik mavzusidan dalolat beradi: jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi, kambag'allik ham boylik ham sevgini inkor etishi Smit va Dejene obrazlari tasviri orqali ko'rsatilgan. Oktav bir avlod vakili sifatida namoyon bo'lgani uchun, u milliy, hissiy, tarixiy, ijtimoiy jihatdan aniqlangan, voqelik bilan bog'liq holda namoyon bo'lganligi sababli, asarning romantik qahramoni voqelik mahsuli sifatida gavdalanadi deyish mumkin. Bu bilan bog'liq holda, ishqiy asarda munosabatlarni moddiy jihatdan tartibga solishga moyillik shakllana boshlaydi.

Demak, Myusse romanida nafaqat tarixiy shart-sharoit konkretlashib qolmaydi, balki ma'naviy-psixologik omillarning tarix bilan ma'lum bir lahzaga bog'liqligini aniq anglash ham namoyon bo'ladi. Qahramonning ichki dunyosi

⁴⁰ D.Hadjadj. *Difficulté d'être et mal du siècle dans les correspondances et journaux intimes de la première moitié du XIXe siècle.* – Paris: Nizet, 1998. – P. 13.

ijtimoiy muhit bilan nafaqat umumlashtirilgan ma'noda, ya'ni, 30-yillarning realistlari kabi dinamik va batafsil emas, balki xuddi shu yo'nalishda tushuntiriladi, chunki qahramon va davr o'rtasidagi munosabatlar roman dinamikasini belgilaydi.

Asarlarda noodatiy hodisa hisoblangan romantik ayolning an'anaviy qiyofasi o'rniga, Myusse oddiy ayol tipidagi xarakter-xususiyatlarini ajratadi. Agar bu Stendal uslubidagi fon bo'lsa, obrazlar obyektiv ravishda, qahramondan mustaqil tarzda mavjud bo'lsa, ular bosh qahramonga tegishli bo'lishi va ayni bir muhitda obyektiv bo'lishi mumkin, Myusseda esa tasvir umuman subyektivdir. Ammo uning o'ziga xosligini ta'kidlash o'rinli: garchi asar so'nggida yo'qolib qolishsa ham (Levasseur xonim, Marko, madam Daniel va boshqalar) qahramonlarning har biri bosh qahramon atrofida ma'lum bir funksiyani bajarishadi, ammo bu obrazlarning barchasi ma'lum darajada obyektivlashtirilgandir. Brijit oddiy ishqiy qahramon emas. Uning hikoyasi dinamikada tasvirlanmagan bo'lsa-da, bu taqdirning yetarlicha rivojlangan hikoyasi bo'lib, uning o'tmishi, Oktavga bo'lgan muhabbat azobi va Smitga bo'lgan muhabbati o'ziga xos murakkablikka egadir. Bu ma'lum darajada Brijitni va uning maktublarining uslubini obyektiv qiladi. Ammo Brijit "asr farzandi"dan ko'ra ko'proq "tabiat farzandi"; uning xarakteri ijtimoiy toifalar bilan emas, balki tabiat fonida ko'rsatilganligi bilan belgilanadi.

Qahramonning samimiy tuyg'ulari uning individualligini namoyon qilishning yagona yo'lidir. Oktavning his-tuyg'ularining hissiy intensivligi uning figurasini yorqinlashtiradi. Ammo agar tuyg'uning hissiy intensivligi, to'g'rirog'i, bu intensivlik darajasi individual bo'lsa, u holda bu yangi hissiylikni yaratish davri uchun odatiy hodisadir. Shunday qilib, shaxsning ma'lum bir darajasi o'zining aniq tarixiy shaklida tipikga bo'ysunadi. Oktav obrazi alohida Oktavga emas, balki avlodga xos bo'lgan muhabbat va tuyg'uni aks ettiradi. Qahramonning his-tuyg'ulari darajasi – uni individuallashtirishning yagona usuli – uning shaxsiyatining "aniqligini" yarata olmaydi. Roman qahramon va atrof-muhit, sharoitlar o'rtasidagi dinamik munosabatlarni tasvirlab berganiga qaramasdan, Myusse qahramoni butun bir davrning aks sadosi bo'la olmaydi. Romantik vositalar orqali erishiladigan umumlashtirish darajasi qahramonni individuallashtirish va to'liq obyektivlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Shunday qilib, roman tarkibida kengayib borayotgan epik mazmun o'ziga xos badiiy timsolda ijtimoiy tamoyilning chuqurlashishi sifatida aks etadi, ya'ni: ijtimoiy motivlarning kengayishi va konkretlashuvi, qahramon munosabatlarining dinamikasi, davr bilan sharoitlar tasvirlangan xarakterlarning ba'zi obyektivlashuvi, oddiy ayol turlarining farqlanishi kabi o'rinlarda romantik bo'lmagan ijobiy qahramon ko'rsatilgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy zamon biror shaxs tomonidan yaratilishi va orqaga qaytishi, oldinga siljishi, o'z o'rnida siqilishi hamda kengayish xususiyatlari bilan xarakterli. Badiiy zamon asarning ko'lamdorligini oshirishga va o'quvchining fikriy darajasini

kengaytirishga xizmat qilishdan tashqari, badiiy vaqtga nisbatan falsafiy yondashuvning chuqurlashishiga va ilmiy tasavvurning kengayishiga xizmat qiladi.

2. Tabiiy makon hamma uchun bir xil ko‘rinish kasb etadi, uning ranglari, jismlar joylashuvi, havoning holati, inson va tabiat, borliq munosabatlari barchasi individlar uchun bir xil tasvir uyg‘otadi. Adabiyot tasvirlaydigan makon yozuvchi tomonidan o‘ziga xos struktura hosil qiladi, o‘quvchi tomonidan alohida kompozitsiya shakllantiradi. Badiiy tasvir qilinayotgan obraz turli pretsedentlar tasavvurida turlicha ko‘rinish hosil qilishi kuzatildi.

3. Barcha tasvirlanayotgan badiiy makon yozuvchining ijtimoiy-madaniy kelib chiqishining ta’sir doirasiga tushadi. Yozuvchi o‘zi yashab turgan real makon holatidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi. Chunki u tasvir qilayotgan badiiy makon uchun zaruriy moddiy baza, ilmiy imkoniyatlar uning ongida mavjud detallarga tayangan holda ish ko‘rishi dalillandi.

4. Romantizm oqimining paydo bo‘lishi asarlarda tanlangan bosh qahramonlar buyuk shaxslar yoki qirollar emas, balki oddiy jamiyat a’zosi sifatida gavdalangan qahramonlar va o’sha jamiyatning ma’lum yutuq va kamchiliklarini, insonlarning kamolotiga kerakli his-tuyg‘ularini ko‘rsatib berishga harakat qilinganligi bilan izohlanadi.

5. Tasvirlanayotgan syujet noaniq vaqt belgilari bilan qo‘llanilishi yozuvchi asarlarining o‘ziga xosligini tashkil qiladi. Badiiy holatdan kelib chiqqan holda, obrazlar mos ravishda badiiy zamon shakliga ega. Alfred de Myusse asarlaridagi xronotop sifatida olingan holat inson badiiy olamining negativ vaziyatlarini qamrab oladi. Bunda asosan badiiy zamon sifatida tun obrazi holatning sodir bo‘lish vaziyati bo‘lib xizmat qiladi. Bunday zamon tanlovi yozuvchi yashagan davr bilan xarakterli ekanligi aniqlandi.

6. Yozuvchining barcha asarlarida tasvirlangan badiiy makon o‘quvchida negativ illuziyani hosil qiladi va yozuvchi maqsad qilgan tasvir bu – chirkin jamiyatni gavdalantirish, u bunga muvaffaq bo‘lgan. Bunda asosan tun tasvirlari yoki kunning so‘ngi qismi va yarim kecha obrazlari orqali asarning badiiy zamoni ifodalangan va sovuq shamol, kuz tabiati, husnsiz tog‘lar, eng xunuk jamoat hududlari (bar, buzuqlik hududlari, ko‘rimsiz xilvatxonalar) yozuvchi asarlarining badiiy makonini tashkil qilgan.

7. A.Myussening asarlari asosan xronotopning mikroolam va makroolam turlari doirasida gavdalantirilgan. Yozuvchi asosan insonning xayoliy olamiga murojaat qiladi va o’sha olam chegarasida o‘zining badiiy xronotopini shakllantiradi. Asarlarning asosiy syujetida qahramonlarning ichki kechinmalari va badiiy tasvir usuli ustivorlik qiladi.

8. Yozuvchi o‘zining she’rlarida ilgari surgan g‘oyalar, motivlar va kechinmalar insonlar o‘rtasidagi mavjud tuyg‘ularning toptalishi hamda moddiy hayot ma’naviy tuyg‘ulardan ustun ekanligining norozi kayfiyati o‘laroq yuzaga chiqqan. Bundan tashqari, yozuvchi she’riyatni eng yuqori darajadagi san’at usuli deya baholagan holda, unda ifodalayotgan kompozitsiyalarida insonning eng yuqori tuyg‘ularini ko‘rsatishga harakat qilgan: insonning dunyoga kelishi va uning vafoti, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro muhabbat, do‘stlik va ishonch tuyg‘ulari.

9. “Asr farzandining dil izhori” asari o‘tmishdagi madaniy to‘ntarishlar va turli harakatlarga qaratilgan o‘sha davr farzandining tanqididir. Yozuvchi bu romani bilan ham o‘zining shaxsiy hikoyasini, ham bir avlodning e‘tiqodi va madaniy inqirozini ochib bergan.

10. Muallif yosh avlodni ular duch kelishi mumkin bo‘lgan baland va past to‘siqlar bilan tanishtirish va ularning ma’lum oqibatlarini haqida bolalarga bilim va ko‘nikma berish hech qanday xabarsiz, ichi bo‘sh yosh avlodni voyaga yetkazishdan ko‘ra afzalroq ekanligini ifodalagan. Shu boisdan o‘z asarlarida jamiyatda paydo bo‘lgan va keng yoyilib borayotgan bu noinsoniy harakatlarni to‘xtatishning yo‘li sifatida o‘zining asarlarini shunday xatti-harakatlarning oqibatlarini ko‘rsatish orqali kelajak avlodga ogohlantirish qilib qoldirgan.

11. “Asr farzandining dil izhori” romani tarkibida kengayib borayotgan epik mazmun o‘ziga xos badiiy timsolda ijtimoiy tamoyilning chuqurlashishi sifatida aks etadi, ya’ni, ijtimoiy motivlarning kengayishi va konkretlashuvi, qahramon munosabatlarining dinamikasi, davr bilan ijtimoiy muhit ta’siri xarakterlarning obyektivlashuvida romantik bo‘lmagan inson obrazini gavdalantirgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ЗИЯДУЛЛАЕВ АБУБАКИР ИБОДУЛЛА УГЛИ

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВРЕМЯ И ПРОСТРАНСТВО ПРОИЗВЕДЕНИЙ
АЛЬФРЕДА ДЕ МЮССЕ**

10.00.04 – Язык и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**



Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № В2019.02.PhD/fil823.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Каршибаева Улжан Давировна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Умурова Гузал Хатамовна
доктор филологических наук, профессор
Асадов Махмадиёр Тураевич
доктор философии (PhD) по филологии, доцент

Ведущая организация: Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «14» мая 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 по присуждению учёных степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 6/857). Адрес: 140104, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, д.43. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «29» апреля 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 12 от «29» апреля 2025 г.).



Н.З.Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Кулдошов
Членский секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологии, доцент

Д.А.Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении на протяжении всего прошлого понятие времени и пространства рассматривается как литературно-эстетический уровень, одно из поэтических средств художественного изображения, а также как литературное явление, исходящее из идеи автора и творческой концепции произведения и являющееся основным элементом создания картины реального бытия в выражении намеченного мотива. Одной из актуальных проблем современного литературоведения является раскрытие хромотопического подхода как значимого композиционного явления в процессе воссоздания образа мира, особенностей психического характера, сложившегося социального статуса общества, ценностей, обычаев, религиозных воззрений, отражение представлений о природе и раскрытия смысловых особенностей художественного произведения.

В мировом литературоведении ведутся научные исследования, направленные на выявление значимости художественного времени и пространства в осмыслении сюжета, жанра, композиции, содержания и идеи произведения, а также в формировании взаимоотношений между писателем и читателем. Художественное время и пространство, интегрируя композицию сюжета, структурируя произведение и формируя эпическое текстовое пространство, обеспечивают целостное восприятие художественной реальности и играют важную роль в осмыслении эстетической природы произведения. В связи с этим изучение художественного времени и пространства с научно-теоретической точки зрения становится одной из актуальных задач литературоведения, так как эти категории важны для раскрытия характера и психологического состояния героев, организации композиции произведения, формирования пейзажа и портрета.

В нашей стране в последние годы, наряду с традиционными научными исследованиями, современные научно-исследовательские тенденции требуют аналитического обсуждения литературно-эстетических аспектов шедевров мировой литературы, фундаментальных национальных ценностей, влияния литературы на общественное формирование, научно-аналитическое исследование литературно-художественных особенностей французской литературы, используя их в развитии литературоведения в особой форме. «Литература – это сердце народа, отражение его духовности. В это сложное время необходимо использовать силу воздействия литературы, чтобы найти путь к сердцам людей, вдохновлять их на благие цели. Изучение наследия предков, создание великой литературы, достойной нашей великой культуры, требует создания всех необходимых условий»⁴¹, и сегодняшняя эпоха, предпринимая такие важные шаги, требует от исследователей изучения общественно-духовной роли романтизма, его хромотопных характеристик в литературно-художественном аспекте, а также художественного осмысления

⁴¹ Mirziyoyev Sh. “Adiblar xiyoboni”ning ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3578/2020,20-may>.

проблем человека и общества с опорой на временные и пространственные компоненты.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-5847 от 8 августа 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-6097 от от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в комплексных реформах, реализуемых в стране», ПП-54 от 2 февраля 2024 года «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования», Постановления Кабинета министров Республики Узбекистан № 610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В рамках мирового литературоведения научные исследования проблемы пространства и времени проводили такие европейские ученые как А.Родригез, W.Хеффернан, А.Жамес, X.Меерхоф, Ж.Суллер, Г.Фисчер, Г.Бачелард, М.Бланчот, Н.Бемонг⁴², российские ученые М.Бахтин, Ю.М.Лотман, Н.Гей, А.Николаев, Д.Лихачев, Н.Шутая, В.Хализев, Б.Мейлах⁴³, а также узбекские

⁴² Rodrigues A. and etc. Studies on time: Time in Literature. – Los-Angeles: University of California Press, 1991. – 14 p.; James A.W. Heffernan Space and time in Literature and the visual art. Soundings: An Interdisciplinary journal. – Hanover, Vol. 70. №1/2, 1978. – P. 95-119; Meyerhof H. Time and Literature. – Los Angeles: University in California Press, 1960. – 178 p.; Culler J. Literary theory. – New York: Oxford University Press Inc, 2011. – 192 p.; Fischer Gustave-Nicolas. La Psychologie de l'espace. – Paris: PUF, 1981. – 128 p.; Bachelard G. La Poétique de l'espace. – Paris: Presses universitaires de France, 1961. – 215 p.; Blanchot M. L'Espace littéraire. – Paris: Gallimadr, 1988. – 384 p.; Bemong N., Borghart P. and etc. Bakhtins's theory of literary chronotope: reflexions, applications, perspectives. – Gent: Academia Press, 2010. – 213 p.

